

Uzbekistan Helicopters qishki vertolyot sayohatlarini taqdim etadi

2022 13 December

Uzbekistan Airways aviakompaniyasining tarkibiy bo'linmalaridan biri "Uzbekistan Helicopters" MCHJ e'tiboringizga qishki vertolyot sayohatlarini havola etadi.

Siz Uzbekistan Helicopters bilan qishki ta'tilda Po'latxon tog' platosi, Beldersoy, Amirsoy, Chimyon, Arashan va Ko'ksu ko'llari kabi O'zbekistonning go'zal maskanlariga tashrif buyurishingiz mumkin.

Sayohatlar Mi-8MTV, Airbus H125 va Airbus H130 vertolyot modellarida amalga oshiriladi.

Vertolyot sayohatlarining narxi sayohat joyi va uning davomiyligiga qarab bir guruh sayohatchilar uchun 16 445 000 so'mdan boshlanadi.

<https://helicopters.uz/> rasmiy saytiga kirib ekskursiyalarni bron qilish va vertolyot sayohatlarining dasturlari haqida batafsil ma'lumot olishishingiz mumkin.